**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
_______________
2024 yil “29” 08 _______

# XALQ HUNAMANDCHILIGI VA BADIIY LOYIHALASH O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60111300 - Texnologik ta’lim |

**Chirchiq – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>XHBL1304</td><td>O‘quv yili<br>2025-2026</td><td>Semestr<br>3</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>4</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td>Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td colspan="2">Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td>Xalq hunamandchiligi va badiiy loyihalash</td><td>60</td><td colspan="2">60</td><td>120</td></tr>
</table>

2.

**I. Fanning mazmuni.**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarga milliy hunarmandchiligimiz tarixi, uning yo‘nalishlari, rivojlanish bosqichlari, tarmoqlari bilan tanishtirish, shuningdek, o‘zbek milliy xalq hunarmandchiligining: yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, naqqoshlik, zardo‘zlik, kashtado‘zlik, gilam to‘qish kabi sohalari sirlarini o‘rgatish, milliy qadriyatlarimizni ardoqlash, ular bilan faxrlanish, g‘ururlanish xislarini rivojlantirish, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan xalq hunarmandchiligi ustalarining munosib davomchilari bo‘lish, yaratuvchanlikka, go‘zallikka intilish kabi tuyg‘ularni tarkib toptirishdan iboratdir.

**Fanning vazifasi** - talabalarda qo‘lda bajariladigan ishlar uchun ish o‘rinlarini tashkil qilish, qo‘l ishlarini bajara olish, milliy hunarmandchiligimizning yo‘nalishlarida foydalaniladigan materiallar, asbob-uskunalar, o‘lchov olish va andoza tayyorlash, do‘ppi tikish usullari va tayyorlash texnologiyasi, quroq tikish usullari, gazlama tanlash va tikish texnologiyasi, kashta tikish usullari, zardo‘zlik, quroqchilik texnikasini to‘g‘ri tanlay olish ko‘nikmalarini hosil qilish.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Kirish. O‘zbek milliy xalq hunarmandchiligi maktablari. O‘zbek milliy xalq hunarmandchiligi va boshqa mamlakatlar hunarmandchiliklari turlari.**

Kirish. Xalq hunarmandchilik san’atining tarixi va uning rivojlarish bosqichlari. Xalq hunarmandchiligi san’ati sohasida Respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijalari. O‘zbekistonda xalq amaliy san’ati va milliy hunarmandchilikning rivojlanishi (Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm, Shosh, Parkana). Xalqning turmush madaniyati va ma’naviyatini ko‘tarishda fanning tutgan o‘rni. Rossiya xalq hunarmandchiligi, ukraina xalq hunarmandchiligi turlari, uning tarixi, hozirgi ahvoli. Ularni tayyorlashda ishlatiladigan xom-ashyo, jihoz va moslamalar.

**2-mavzu. Badiiy loyihalash. Kompozitsiya. Badiiy loyihalashda kombinatorika.**

Dizaynning asosiy qoidalari. Buyumlar muhitini loyihalashga qo‘yiladigan talablar. Umumiylik, yaxlitlik, uyg‘unlik. Reproduktiv usulda namuna nusxasini ko‘chirib loyihalash. Konstruksiyalash turlari. Konstruksiyalash turlari bo‘yicha ish jarayonini tashkil qilishga qo‘yiladigan talablar. Kompozitsiya qonuniyatlari

va vositalari. Kompozitsiya, uning asosiy turlari va kategoriyalari. Ritm, muvozanat, shaklning dinamikligi va statikligi, simmetriya va asimmetriya, masshtab, proporsiya, kontrast, nyuans, tektonika. Badiiy loyihalashda kombinatorika. Shakl kompozitsiyasini o'rganishning kombinatorik tamoyillari. Geometrik shakllar asosida bezakli kombinatorik element hosil qilish. Dizayn va arxitekturada kombinatorik elementlar.

**3-mavzu. Kashtachilik, zardo'zlik, quroqchilik, zarzarlik, naqqoshlik, yog'och va ganch o'ymakorligi san'atlari.**

Qo'lda va mashinada kashta tikish. Qo'lda kashta tikishda kashtado'zning ish o'rniii tashkil etish. Kashtado'zlikda qo'llaniladigan choklarni tikish usullari. Zardo'zlik san'ati tarixi, uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari. Zardo'zchilik maktablari va ustalari. Zarzarlik san'ati texnologiyasi. Zargarlik uchun asbob uskunalar. Naqqoshlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar. Gilam to'qish texnologiyasi. Gilamdo'zlikda foydalaniladigan asbob va uskunalar. Yog'och o'ymakorligi san'ati. Yog'ochda o'yish uchun asbob uskunalar. Ganch o'ymakorligi san'ati. Ganch o'ymakorligi uchun asbob uskunalar.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Xalq amaliy san'ati turlari, ularning shakllanish va rivojlanish tarixi.
2. Ustaxonada ish o'rnini tashkil qilish va mehnatni muhofaza qilish, sanitariya-gigiena va havfsizlik texnikasi qoidalari
3. Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at turlari, ulardagi umumiylik va farqlar. Boshqa mamlakatlar xalq hunarmandchiliklari san'ati. Ularda ishlatiladigan mahsulotlar turlari, asbob-uskunalar va tayyorlash texnologiyalari.
4. Kompozitsion qator, rang va ritmdan foydalanib bezakli kompozitsiyalar tuzish. Kostyumni badiiy loyihalash usullari. Badiiy loyihalashda kompozitsion uyg'unlik
5. Qo'lda va mashinada kashta tikish. Qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalarni tanlash.
6. Qo'lda kashta tikishda kashtado'zning ish o'rnini tashkil etish.
7. Kashta tikish uchun kerakli jihoz va moslamalar. Qo'lda bajariladigan ishlarning asosiy usullari
8. Tikuv buyumlarini zardo'zlik usuli bilan bezash.
9. Zardo'zlik mahsulotlari turlari.
10. Zardo'zlikda qo'llaniladigan jihoz va moslamalar.
11. Zardo'zlikda ishlatiladigan chok turlari.
12. Bezak turlari. Piston va munchoqlar bilan bezash Piston va munchoqlarni tikish usullari, hamda gullari, ranglarining mujassamlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish
13. Do'ppi tikish texnologiyasi. Do'ppi tikishda ishlatiladigan materiallar va bezak elementlar.
14. Do'ppini bichib tayyorlash, tikish va bezatish.

15. Quroqchilik texnikasi.
16. Quroq tikish usullari.
17. Gazlama qoldiqlarini quroq tikishga tayyorlash.
18. Taxlama va yassi quroq tikish.
19. Zargarlik uchun asbob uskunalar.
20. Zarzarlik san'ati texnologiyasi.
21. Naqqoshlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar. Naqsh kompozitsiyalari: yo'l ichiga naqsh chizish, uchburchak ichiga naqsh chizish, aylana ichiga naqsh chizish.
22. Gilamdo'zlikda foydalaniladigan asbob va uskunalar. Gilam to'qish texnologiyasi.
23. Savat to'qishda ishlatiladigan hom-ashyo, jihoz va moslamalar. Savat uslublari. Savatchilik va bo'yrachilik.
24. Yog'och o'ymakorligi san'ati. Yog'ochda o'yish uchun asbob uskunalar.
25. Yog'och o'ymakorligi san'ati texnologiyasi.
26. Ganch o'ymakorligi san'ati. Ganch o'ymakorligi uchun asbob uskunalar.
27. Kulolchilik san'atida ishlatiladigan asbob-uskunalari turlari. Kulolchilik buyumlari turlari va ularni yasash texnologiyasi.

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Xalq amaliy san'ati turlari, ularning shakllanish va rivojlanish tarixi.
2. Mamlakatimizda shakllangan yirik amaliy san'at maktablari va hunarmandchilik markazlari.
3. Hunarmandlar tomonidan tayyorlanadigan milliy matolar va ularning turlari.
4. Umumta'lim maktablaridagi texnologiya mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy hunarmandchilik va amaliy san'at asoslariga o'rgatishning mazmuni.
5. Boshqa mamlakatlar xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan mahsulot turlari.
6. Kompozitsion qator, rang va ritmdan foydalanib bezakli kompozitsiyalar tuzish.
7. Kostyumni badiiy loyihalash usullari. Badiiy loyihalashda kompozitsion uyg'unlik.
8. Qo'lda va mashinada kashta tikish. Qo'lda kashta tikishda kashtado'zning ish o'rniii tashkil etish.
9. Kashta choklarini tikish usullari. Mireshka choklarini tikish usullari
10. Zardo`zlik mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi: naqsh elementlarini

| | |
|---|---|
| | chizish, tikish ketma ketligi<br>11. Quroq tikish usullari. Taxlama va yassi quroq tikish<br>12. Yog'och o'ymakorligi san'ati, yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblarni ishga sozlash va saqlash qoidalari.<br>13. Tikuv buyumlarini zardo'zlik usuli bilan bezash. Zardo'zlik mahsulotlari turlari.<br>14. Zardo'zlikda qo'llaniladigan jihoz va moslamalar. Zardo'zlikda ishlatiladigan chok turlari.<br>15. Do'ppi tikish texnologiyasi. Do'ppini bichib tayyorlash, tikish va bezatish.<br>16. Quroqchilik texnikasi. Quroq tikish usullari. Gazlama qoldiqlarini quroq tikishga tayyorlash.<br>17. Naqqoshlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar.<br>18. Naqsh kompozitsiyalari: yo'l ichiga naqsh chizish, uchburchak ichiga naqsh chizish, aylana ichiga naqsh chizish.<br>19. Gilamdo'zlikda foydalaniladigan asbob va uskunalar. Gilam to'qish texnologiyasi.<br>20. Savatchilik hunari tarixi. Savat to'qishda ishlatiladigan hom-ashyo, jihoz va moslamalar. Savat uslublari. Savatchilik va bo'yrachilik.<br>21. Yog'och o'ymakorligi san'ati. Yog'ochda o'yish uchun asbob uskunalar.<br>22. Ganch o'ymakorligi san'ati. Ganch o'ymakorligi uchun asbob uskunalar.<br>23. Zargarlik uchun asbob uskunalar. Zarzarlik ishlari texnologiyasi.<br>24. Zardo'zlikda zar tikish usullari, naqsh elementlari.<br>25. Kulolchilik san'atida ishlatiladigan asbob-uskunalari turlari.<br>26. Kulolchilik buyumlari turlari va ularni yasash texnologiyasi.<br>27. Kandakorlik buyumlari turlari va ularni yasash texnologiyasi. |
| 3. | **VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- "Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash" " fanining tushunchasi, bu fanni o'qitishdan maqsad, xalq hunarmandchiligi xaqida umumiy tushunchalar; milliy hunarmandchilik asoslari, turli millatlar xalq hunarmandchiligi turlari to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)**<br>- o'zbek milliy xalq hunarmandchiligi turlari, kashtachilik tarixi, kashta tikish texnologiyasi, zardo'zlik tarixi, zardo'zlik tikish usullari va texnologiyasi; do'ppichilik tarixi va do'ppi tikish usullari, pichoqchilik texnologiyasi, naqqoshlik texnologiyasi, ganchkorlik texnologiyasi, zargarlik texnologiyasini bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olib **foydalana olishi; (ko'nikma).**<br>- xalq hunarmandchiligi usulida buyum tayyorlash; xalq hunarmandchiligini zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirish; xalq hunarmandchiligi uchun materiallar tanlash; xalq hunarmandchiligi uchun kerakli asbob uskunalarlardan foydalanish, dizayn va badiiy loyihalashning turmushdagi ahamiyati, buyumlarni badiiy loyihalash metodlari, belgi va ramzlar, sanoat grafikasi asoslari, hajmli maket tayyorlash asoslari bo'yicha **malakalarga ega bo'lishi kerak**. |
| 4. | **VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar; |

| | |
|---|---|
| | • interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Shoyoqubov Sh.K. “O‘zbek xalq amaliy-bezak san’ati”. – T.: 2009 y.<br>2. Abdullaeva Q.M. va boshqalar. “Gazlamaga badiy ishlov berish”. – T.: “Cho’lpon”, 2016 y.<br>3. Shermuxamedov R.S., Parpiyeva M.M., Sharipova G.S. Xalq hunarmandchiligi. Darslik. T.: “Tafakkur”, 2021.<br><br>**XI. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Xalmuxamedova M.A. “Texnologiya ta’limi praktikumi”. – Chirchiq.: “Yangi chirchiq book”, 2023 y.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. http://www.edu.uz<br>2. http://www.tdpu.uz<br>3. http://www.cspi.uz<br>4. http://www.ziyonet.uz<br>5. http://www.pedagog.uz<br>6. http://www.experiment.webservis.ru<br>7. http:// www.elibrary.ru<br>8. http://www.rukodelie.ru- rukodelie |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “29” 08 1-son dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>M.Yu. Yakubova CHDPU, “Texnologik ta’lim” kafedrasi, p.f.f.d. (PhD), dots. v.b. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>R.S.Shermuxamedov – CHDPU, Texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti.<br>X.T.To‘lqinova - Toshkent davlat pedagogika universiteti “Texnologik ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD). |